

HUNARMANDCHILIK HUDUD IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMIL SIFATIDA

Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: new_rich80@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0006-1117-892X>

UDK: 94 (575.1)(100)

Annotatsiya: Maqolada hunarmandchilik ishlab chiqarishining tarixi va hozirgi rivojlanish darajasi ko'rib chiqilgan bo'lib, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hunarmandchilikning, jumladan, uy hunarmandchiligining o'rni va o'ziga xos xususiyatlari, uning hozirgi holati, xalq hunarmandchiligi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun sohaning iqtisodiyot va jamiyatdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, Yevropaning yetakchi mamlakatlari misolida zamonaviy hunarmandchilik o'rta asrlar sarqiti emas, balki kichik tadbirkorlikning rivojlanayotgan turi ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, hunarmandchilik mahsulotlari, madaniy meros, hunarmandchilik iqtisodiyoti, hunarmandchilik shakllari, mahalliy iqtisodiyot, tadbirkorlik, sanoat.

Аннотация: В статье рассматривается история и современный уровень развития ремесленного производства, анализируется роль и особенности ремесленничества, в том числе домашнего ремесленничества, в социально-экономическом развитии регионов, его текущее состояние, роль отрасли в экономике и обществе для изучения взаимосвязи народных промыслов и социально-экономического развития регионов. Также на примере ведущих стран Европы показано, что современное ремесленничество — это не пережиток средневековья, а развивающийся вид малого предпринимательства.

Ключевые слова: ремесленничество, ремесленное производство, культурное наследие, ремесленная экономика, формы ремесленничества, локальная экономика, предпринимательство, промышленность.

Abstract: The article examines the history and current level of development of handicraft production, analyzes the role and characteristics of handicrafts, including home handicrafts, in the socio-economic development of regions, its current state, the role of the industry in the economy and society to study the relationship between folk crafts and the socio-economic development of regions. Using examples from leading European countries, it also demonstrates that modern handicrafts are not a relic of the Middle Ages, but a developing form of small entrepreneurship.

Keywords: handicrafts, handicraft production, cultural heritage, handicraft economy, forms of handicrafts, local economy, entrepreneurship, industry.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Hunarmandchilik uzoq vaqt davomida iqtisodiy faoliyatning asosiy turlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlarida xalq hunarmandchiligi yuksak darajada rivojlangan. Hozirgi bosqichda xalq badiiy hunarmandchiligi sohani tashkil etish va ishlab chiqarish ko'lami bo'yicha jiddiy o'zgarishlarga uchramoqda. Bularning barchasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki xalq hunarmandchiligi tarmog'i hali ham mehnat resurslarining katta qismini to'playdi va milliy mahsulotni yaratishda ishtirok etadi.

O'zbek xalqining madaniy merosi bo'lgan milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, uning jahon miqyosida namoyon bo'lish istiqbollari belgilash davlat siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Har bir millatning o'sishi madaniyat va san'at darajasi bilan belgilanadi.

O'z navbatida, davlatning san'at va madaniyatga bo'lgan munosabati jamiyatning rivojlanish darajasini belgilaydi. O'zbekistonda turizm va bozor iqtisodiyotining rivojlanishi sharoitida milliy hunarmandchilik mahsulotlari bozori shakllanib, u sovg'a mahsulotlari bozorining asosini tashkil etadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Hunarmandchilik iqtisodiyotini o'rganish sohasidagi nufuzli olimlarning fikricha, "hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash global iqtisodiyotni rivojlantirishning muqobil iqtisodiy modellarini qo'llab-quvvatlash, ehtiyoj shakllari, ishlab chiqarish jarayonlari, bozorlarni standartlashtirish va mahsulotning umr ko'rish davomiyligini dasturlashga qaratilgan" [6, 248 b.: 7, 318 b.]. Rivojlanayotgan hududlarda xo'jalik faoliyatining asosiy turi bo'lgan hunarmandchilikning shubhasiz afzalligi, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning ekologik tozaligi bo'lib, bu hududlarning barqaror rivojlanishi uchun ayniqsa muhimdir. Rivojlangan G'arb mamlakatlarida xalq hunarmandchiligi kreativ iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, uning doirasida dizayn va hunarmandchilik kooperatsiyasi va integratsiyasi amalga oshiriladi [4, 83 b.: 10, 377 b.].

Xalq hunarmandchiligining iqtisodiyotdagi yuqori ahamiyatidan tashqari, hunarmandchilik bir qator muhim ijtimoiy ta'sirlarga ega. *Birinchi*dan, ular insoniyat tarixining turli bosqichlarida odamlarning birlashuviga aloqa vositasi bo'lgan tildan ham ko'proq hissa qo'shgan. Hozirgacha hunarmandchilik faoliyati rivojlangan hududlarda o'zaro munosabatlar xarakteri bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. *Ikkinchi*dan, hunarmandchilik an'ana va urf-odatlarining davomiyligini ta'minlaydi [2, 6 b.]. Bu, ayniqsa, an'anaviy jamiyat tipidagi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun xosdir. *Uchinchi*dan, hunarmandchilik globalashuv jarayoniga muqobil hisoblanadi.

Xalq hunarmandchiligi hududni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ish o'rinlarini yaratish va kichik biznesni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Shuningdek, an'analarni saqlash va

sayyohlarni jalb qilish orqali madaniy merosni boyitadi. Bundan tashqari, hunarmandchilik o'sib kelayotgan avlodga tarbiya va estetik rivojlanishni rag'batlantiradi, ularda go'zallik tuyg'usini va madaniyatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantiradi.

Iqtisodiy rivojlanishdagi xususiyatlari:

Ish o'rinlarini yaratish. Hunarmandchilik ishlab chiqarish, savdo va turizm sohaslarida ish o'rinlarini yaratadi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish. Ko'pgina hunarmandchilik korxonalari kichik va o'rta biznesga kiradi.

Turizmni rag'batlantirish. Xalq hunarmandchiligi mahsulotlari sayyohlarni o'ziga jalb qiladi, bu esa turizm sohasidan olinadigan daromadning o'sishiga yordam beradi.

Madaniy va ijtimoiy rivojlanishdagi xususiyatlari:

Madaniy merosni asrab-avaylash. Hunarmandchilik mintaqa madaniy o'ziga xosligining muhim qismi sifatida madaniy an'analar va xalq san'atini saqlash hamda rivojlantirishga yordam beradi.

Mahalliy o'ziga xoslikni shakllantirish. Hunarmandlarning mahsulotlari ma'lum hududlarning taniqli brendlari va ramzlariga aylanishi mumkin.

Tarbiya va ta'lim. Hunarmandchilikka jalb qilish madaniy qadriyatlarga go'zal va ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tuyg'usini tarbiyalashga yordam beradi, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantiradi.

Estetik boyitish. Hunarmandchilik ommaviy ishlab chiqarishga qarama-qarshi o'laroq, noyob, tarixiy ahamiyatga ega narsalarni yaratish orqali go'zallikka erishish imkonini beradi.

Postsovet hududida hunarmandchilik iqtisodiy faoliyat turi sifatida uzoq vaqt inqirozga uchragan. Xalq hunarmandchiligiga, ayniqsa, sohaning sovet tashkiliy tuzilmasining buzilishi va aholining xarid qobiliyatining pastligi qattiq ta'sir ko'rsatdi. Iste'mol talabining sezilarli darajada pasayishi natijasida hunarmandchilikning bir qismi o'z faoliyatini to'xtatdi, boshqalari esa mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini qisqartirdi. Bozor sharoitlariga moslashishda ishlab chiqarishni tashkil etishning inqilobdan oldingi modeli –

kasanachilik samarali bo'ldi [14, 64 b.]. Markaziy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida xalq badiiy hunarmandchiligi hali ham alohida hududlar va shaharlar iqtisodiyotiga katta hissa qo'shmoqda [3, 15-16 b.].

O'zbekistondagi hunarmandchilik chuqur ixtisoslashgan bo'lib, o'zida xilma-xil kasbkorlarni birlashtirgan. Masalan, terini qayta ishlash sohasida ko'nychilar, etikdo'zlar, mahsido'zlar, kovushchilar, egar-jabduqchilar, telpakchilar, po'stinchilar, kamarchilar; to'qimachilik sohasida bo'zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar; metallni ishlash sohasida temirchilar, taqachilar, misgarlar, chilangarlar, zargarlar kabi kasblar bo'lgan.

Hunarmandchilikning ijtimoiy mehnat taqsimoti evolyutsiyasi bosqichlariga mos keladigan 3 ta tarixiy shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) uy hunarmandchiligi; 2) buyurtma asosida mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik; 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik. Uy hunarmandchiligi ko'pincha uy sanoati, ya'ni noqishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish, buyurtma va bozor hunarmandchiligi esa hunarmandchilik sanoati deb ataladi [15, 118 b.]. Shaharlarning hunarmandchilik-savdo markazlari sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi buyurtma va ayniqsa bozor uchun mo'ljallangan hunarmandchilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Natijada hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqarildi.

Uy hunarmandchiligi – bu natural xo'jalikning bir qismi bo'lgan uy sharoitida o'z ehtiyojlari uchun qo'lda buyumlar ishlab chiqarish yoki an'anaviy texnologiyalarga asoslangan va mahalliy madaniyatni aks ettiruvchi xalq hunarmandchiligining bir shakli. Bular kundalik buyumlar ham, badiiy buyumlar, masalan, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi yoki kulolchilik buyumlari bo'lishi mumkin. Hunarmandchilikning mazkur shakli kapitalizmga qadar bo'lgan davrlarda hunarmandchilikning eng ko'p tarqalgan turi bo'ldi.

Uy hunarmandchiligining boshqalaridan muhim farqli jihati shundaki, unda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tovar xususiyatiga ega

bo'lmaydi, ya'ni bozorda sotish uchun mo'ljallanmagan. Aniqrog'i mazkur hunarmandchilik yo'nalishida ishlab chiqarilgan mahsulotlar faqat ichki xo'jalik ehtiyojlarida foydalanishga mo'ljallangan. XIX asr oxirlariga kelib, O'rta Osiyoda uy hunarmandchiligida ishlab chiqarilgan ayrim mahsulotlar tovar xususiyatiga ega bo'la boshladi. To'plangan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uy hunarmandchiligi turlari ziroatkor aholiga nisbatan chorvador aholida ko'proq rivojlangan. Buning asosiy sabablaridan biri uy hunarmandchilik uchun asosiy xom-ashyo asosan chorvachilik mahsulotlaridan olingan.

Uy hunarmandchiligining o'ziga xos xususiyatlari:

Natural xo'jalik: Tarixiy sharoitda uy hunarmandchiligi natural xo'jalikning ajralmas qismi bo'lib, buyumlar o'z oilasining ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan.

Qo'lda ishlab chiqarish: Qo'lda ishlatiladigan mehnat qurollari va an'anaviy, ko'pincha oddiy texnologiyalar qo'llaniladi.

An'anaviy ko'nikmalar: Mahsulotlar mahalliy madaniyat, tarix va san'atning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Zamonaviy ma'nosi: Hozirgi kunda uy hunarmandchiligi ham daromad manbai va kichik biznesning bir qismi bo'lishi mumkin. Masalan, uy shirinliklari, kulolchilik, zargarlik buyumlari yoki buyurtma kiyimlar ishlab chiqarish.

An'anaviy xo'jalikning asosiy tarmoqlari – dehqonchilik va chorvachilikdan olinadigan mablag'larning yetishmasligi, uy jihozlariga bo'lgan ehtiyoj sharoitida uy hunarmandchiligi turli hududlar xo'jaligida muhim rol o'ynagan va ular aholi iqtisodiyotida katta yordam bergan. Har bir xo'jalik hunarmandchilikni xo'jalik faoliyatining mustaqil sohalariga ajratgunga qadar qishloq xo'jalik asbob-uskunalaridan tortib kiyim-kechak va uy-ro'zg'or buyumlarigacha bo'lgan barcha zarur narsalarni tayyorlagan [13, 191 b.].

Uy hunarmandchiligining rivojlanish jarayoni qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari rivojlanishining umumiy darajasiga bevosita bog'liq bo'lgan. Uy hunarmandchiligida erkaklar ham, ayollar ham band bo'lgan. Jun, qo'y terisiga ishlov berish, to'qish, yigirish,

tikish, kanopga ishlov berish bilan faqat ayollar shug'ullangan.

Tarixda hunarmandlar nafaqat mohir mehnati, balki bilimi uchun ham qadrlangan. Ular nafaqat tayyor mahsulot ishlab chiqarganlar, balki ta'minotchilar, boshqa hunarmandlar va iste'molchilarni o'zaro muvofiqlashtira olganlar.

Bugungi kunda hunarmandchilik ishlab chiqarish sohalari oziq-ovqat, zargarlik, charm mahsulotlari (charm-attorlik buyumlaridan tortib, ot abzallari ishlab chiqarishgacha) ishlab chiqarishda jiddiy o'rinlarni egallab kelmoqda. Bundan tashqari, hunarmandlar qurilish sohasida ham talabga ega. Bular yakka tartibdagi loyiha va kottej qurilishi, qishloq joylarda hovlilarni obodonlashtirish, shuningdek, barcha tegishli ishlab chiqarishlar — temirchilik, toshga ishlov berish, sopol buyumlar yasash va boshqalardir.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishi bir necha sabablarga ko'ra zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi:

- *Ishlab chiqarish va iste'molni individuallashtirish.* Hunarmandlar individual buyurtmalar bo'yicha tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaradilar, bu esa ma'lum bir iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

- *Yashil iqtisodiyot sohasidagi salohiyat.* Hunarmandchilik ishlab chiqarishi ikkilamchi xom ashyodan foydalanishga tayyor va yirik kompaniyalar bilan hamkorlik munosabatlariga kirishishi mumkin.

- *Mahalliy xomashyodan foydalanish.* Bu esa multiplikator effekti orqali hududiy yalpi mahsulotning o'sishini ta'minlaydi.

- *Mavsumiy bandlik muammosini yumshatish imkoniyati.* Hunarmandchilik texnologik siljishlar natijasida bo'shagan ishchi kuchini to'plashi mumkin.

- *Madaniy-mamlakat xilma-xilligini qo'llab-quvvatlash.* Hunarmandchilik ishlab chiqarishi insonning etnik kelib chiqishini aniqlashga yordam beradi.

- *Eksport salohiyati.* Hunarmandchilik iqtisodiy o'sishga va tashqi savdo aylanmasi hajmini oshirishga yordam berishi mumkin.

Ba'zi hunarlar nafaqat milliy, balki xalqaro bozorga ham kirib bormoqda. Masalan, charm va metall attorlik buyumlari, oltin va kumush

buyumlar, o'yinchoqlar, zargarlik buyumlari, bronzadan yasalgan buyumlar, sopol buyumlar va boshqalar. Turizmning rivojlanishi bilan faqat ushbu mamlakatga, ushbu mintaqaga xos bo'lgan barcha o'ziga xosliklarga qiziqish keskin oshdi. Ushbu turdagi hunarmandchilik mahsulotlariga taklif ham ko'paydi.

Fransiyada 2 milliondan ortiq kishi, ya'ni qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan faol aholining taxminan 10 foizi hunarmandchilik sektori bilan bog'liq bo'lib, bu ba'zi mamlakatlarda faol qishloq xo'jaligi aholisidan oshib ketadi. Bu miqdorga korxonaga egalik qiluvchi hunarmandlar, ularning yollanma ishchilari, hunarmandga yordam beruvchi oila a'zolari va shogirdlar kiradi [1].

Hunarmandlar bozorda nafaqat kichik, balki yirik biznes bilan ham raqobatlashmoqda. Hunarmandlar davomiyli ishlab chiqarish bo'lmagan joyda, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida raqobatga eng muvaffaqiyatli bardosh beradilar. So'rov natijalariga ko'ra, hunarmandlarning o'zlari taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlarning yuqori sifatini o'zlarining afzalliklari deb bilishadi. Darhaqiqat, individual hunarmand ko'proq darajada mijozning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishi, "lyuks" toifasidagi tovarlarni yaratishi, iste'molchining eng nozik didlarini qondirishi mumkin. Gap zargarlik, mo'ynachilik, nostandart mebel ishlab chiqarish haqida bormoqda. Bunday ishlar uchun juda yuqori malakali mehnat va shu bilan birga modaga tez moslashish qobiliyati talab etiladi. Oziq-ovqat sanoatining hunarmandchilik korxonalari iste'molchiga yaqinligi, kundalik talabning yuqoriligi, doimiy ta'minotchilarga ega bo'lishga intilishi natijasida yirik firmalar raqobatiga bardosh berishi ko'rsatib o'tilgan.

Germaniyada hunarmandchilik iqtisodiyotning eng xilma-xil tarmog'idir: kichik va o'rta hunarmandchilik korxonalari Germaniya iqtisodiyotining an'anaviy tayanchi hisoblanadi. Ushbu sohadagi 962 mingta korxonada 4,8 millionga yaqin kishi mehnat qilmoqda. Ularda 483 ming o'quvchi kasb-hunarga o'qitildi. Demak, jami ishlovchilarning qariyb 12 foizi hunarmandchilik sohasida band bo'lib, bu yerda jami o'quvchilarning qariyb 30 foizi kasb egallaydi, hunarmandchilik

ustaxonalari esa barcha korxonalarining 27 foizini tashkil etadi. Tarmoqda iqtisodiyotning boshqa segmentlarini yosh malakali kadrlar bilan ta'minlash uchun talab qilinadiganidan ko'proq mutaxassislar tayyorlanmoqda. Hunarmandchilik sohasidagi aylanma 491 milliard yevroni, ya'ni yalpi ichki mahsulotning 8 foizini tashkil etadi [11].

Germaniyada bu sohaga hunarmandchilikning 94 turidan biri bilan shug'ullanadigan korxonalar kiradi: g'isht teruvchilardan tortib skripka ustalarigacha. Aksariyat Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq, hunarmandchilikka mansublik korxonaning kattaligi, band bo'lganlar soni yoki aylanma hajmi bilan belgilanmaydi. Malakali hunarmandlar Germaniya iqtisodiyotining eng ko'p qirrali sohasi bo'lib, kichik va o'rta biznes sektorining asosini tashkil etadi. Hunarmandlar segmenti o'zining uzoq muvaffaqiyatli faoliyati davomida mamlakat ijtimoiy hayotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy va ijtimoiy guruhga aylandi [12, 208 b.].

Hunarmandchilik sohasi xususiy iste'molchilar uchun ham, sanoat va savdo kompaniyalari, davlat tuzilmalari uchun ham tovarlar va xizmatlarning keng, tabaqalashtirilgan va yuqori texnologik tanlovini taklif etadi.

Italiyada ham hunarmandchilik korxonalari aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Barcha korxonalarining 33 foizi hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lib, ular aholining 21 foizini va mamlakat yalpi ichki mahsulotining 15 foizini ish bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, Italiya IHTT mamlakatlari orasida kichik va o'rta ishlab chiqarish korxonalarining eng katta ulushiga ega bo'lgan davlatdir. Italiya korxonalari an'anaviy mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan: yengil va oziq-ovqat sanoati, kiyim-kechak, yengil mashinasozlik. Ixtisoslashuv Italiyaga xos xususiyatdir. Boshqa ko'pgina rivojlangan mamlakatlar an'anaviy sermehnat mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishni keskin qisqartirib, yuqori texnologiyali tovarlar ishlab chiqarishga o'tgan bir paytda, Italiya korxonalari ularning kichik hajmi va "eski" ixtisoslashuviga qaramay, jahon bozorida

salmoqli o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi. Bunday natijaga "made in Italy" brendi ostida innovatsion, zamonaviy va sifatli mahsulotlarga ixtisoslashuv orqali erishildi [8: 9].

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham hunarmandchilik korxonalarining xalqaro bozorlarga yo'naltirilishi kuchaydi. Shunday qilib, Yevropaning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida hunarmandchilik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishlarining Yevropa va Osiyoning o'rta asrlar va sanoatdan oldingi ustaxonalaridan farqi shundaki, qo'l mehnati intellektual mehnat bilan tobora ko'proq uyg'unlashib bormoqda. Bu esa mehnat qurollarining evolyutsiyasi va yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Kelajak instituti (The Institute For The Future) ning yaqin o'n yillikdagi prognozlariga ko'ra, hunarmandchilikning ahamiyati oshishi "yangi hunarmandchilik iqtisodiyoti" kabi hodisani keltirib chiqarishi mumkin. Hech bo'lmaganda ikkita asosiy tendensiya rivojlanadi. Bu yirik korxonalarining o'zgaruvchan bozor ehtiyojlariga moslashuvi va bozor ehtiyojlarini moslashuvchan va aniq qondira oladigan kichik korxonalar ahamiyatining o'sishidir. Shu bilan birga, hunarmandchilik faoliyatining yakuniy natijasi ko'p jihatdan bir xil bo'ladi: hunarmandlar nafaqat mahsulot ishlab chiqaradi, balki global hunarmandchilik kooperatsiyasi afzalliklaridan foydalangan holda nafaqat mahalliy va milliy darajada, balki global miqyosda ham iqtisodiyotni shakllantiradi [5].

Prognozlarga ko'ra, hunarmandchilik mahsulotlarining katta qismi kichik korxonalar yoki yakka tartibdagi xususiy tadbirkorlar tomonidan taqdim etiladi. Bular noyob, individual ishlab chiqarilgan tovarlarni izlayotgan tobora ko'proq iste'molchilar uchun o'z turidagi yagona buyumlarni yoki mahsulotlarning cheklangan partiyalarini ishlab chiqaradigan savdo-hunarmandchilik kompaniyalari bo'ladi. Bu korxonalarga yangi mahsulot va bozor yaratish istagidagi

hunarmandlar, usta va muhandislar jalb qilinadi.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishining yangi avlodi avvalgilariga qaraganda mukammalroq bo'ladi. Ular eng so'nggi texnologiyalar bilan jihozlanadi, mahalliy va global iste'molchilarga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi, har qanday sohada raqobatlasha oladi. Bu firmalar harakatchan, moslashuvchan bo'ladi. Ko'pincha qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun yirik kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi. Mutaxassislarining fikricha, yangi hunarmandchilik firmalarining aksariyati bilimlarga asoslangan bo'lib, murakkab muammolarni hal qilish va yangi g'oyalar, tovarlar, xizmatlar va biznes modellarini ishlab chiqish uchun inson kapitaliga tayanadi. Ularda yuqori malakali mutaxassislar ish bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan bo'lib, ularga ijod qilish va manyovra qilish uchun erkinlik beriladi, shuningdek, yuqori darajadagi ish haqi kafolatlanadi [12, 208 b.].

"Yangi hunarmandchilik iqtisodiyoti" kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisobidan jadal rivojlanadi. Hunarmandlar yangi tashkiliy tuzilmalarni yaratadilar va ish hamda shaxsiy hayot o'rtasidagi muvozanatni topish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadilar.

Albatta, bu bashorat qanchalik o'zini oqlashini aytish qiyin. Lekin shunisi aniqki, hunarmandchilik o'rta asrlar sarqiti yoki faqat sayyohlarga mo'ljallangan soha emas. Hunarmandchilik ustaxonalari mahsulotlariga talab ular taklif etayotgan mahsulotlarning yuqori sifati, ekologik tozaligi va individualligi tufayli oshdi. Bugungi kunda ham u yoki bu mamlakatning milliy o'ziga xosligini eng ko'p darajada aks ettiruvchi hunarmandchilik ishlab chiqarishi kuchli raqobat ustunliklaridan biriga aylanishi mumkin.

Hunarmandchilikni rivojlantirish qishloq xo'jaligida bandlik muammosini hal qilishning bir yo'lidir. Qishloq xo'jaligi ishlarining mavsumiyligi va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish bilan bir vaqtda ish bilan band bo'lmagan va bo'shagan aholini ish bilan ta'minlash zarurati yuzaga kelishini hisobga olgan holda, qishloq xo'jaligi hududida noqishloq xo'jalik faoliyatini tashkil etish

birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Bu ko'p jihatdan yil davomida mehnat resurslaridan bir me'yorda foydalanish, qishloqlarda ish bilan bandlik darajasini oshirish, qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Hunarmandchilik kichik tadbirkorlikning bir ko'rinishi bo'lib, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu shuni anglatadiki, tadbirkorlik faoliyatiga aholining turli toifalari – ayollar, yoshlar, keksalar jalb etilishi mumkin. Bundan tashqari, hunarmandchilikning rivojlanishi daromadlar qutblanishi va aholi turmush darajasining tabaqalanishini kamaytirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy barqarorlikning shart-sharoitlarini yaratadi.

Hunarmandchilik turizmni rivojlantirish, shuningdek, milliy madaniyatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Hunarmandchilik katta eksport salohiyatiga ega faoliyat sifatida eksport yo'nalishiga ega bo'lib, iqtisodiy o'sishga va tashqi savdo aylanmasi hajmining oshishiga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda hunarmandchilik yangi bilimlar, materiallar va texnologiyalar, kommunikatsiya, kooperatsiya va ixtisoslashuvning yangi imkoniyatlari bilan boyib bormoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xalqimizning an'anaviy turmush tarzi, azaliy mehnat ko'nikmalarining milliy qadriyatlari tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlar izchil ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Ming yillar davomida shakllangan xalq hunarmandchiligi tajribasidan kelib chiqib, shuningdek, hunarmandchilikni an'anaviy milliy san'at yo'nalishida rivojlantirishning ijtimoiy-ma'naviy poydevoriga tayangan holda respublika rahbariyati tashabbusi bilan mustaqillik yillarida ushbu sohaning tadrijiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Bu milliy xalq hunarmandchiligi va amaliy bezak san'ati jarayonida, ayniqsa, milliy hunarmandchilikning unutilgan ayrim turlarini rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ateliers d'Art de France // <http://www.ateliersdart.com/metiers.php?lang=eng>
2. Chattopadhyay, K. Crafts and the Future. India International Centre Quarterly. Vol. 11, no. 4 (1984): 5–14.
3. Ergasheva A.F., Kadirova M.M., Kadirova S.H. The role of the tourism nationals crafts in Bukhara region. European science. no. 1 (50), (2020): 15-16.
4. Friel M. Crafts in the Contemporary Creative Economy. Aisthesis, no. 13(1), (2020): 83-90.
5. Intuit Future of Small Business Report. Third Installment: The New Artisan Economy. Institute for the Future for Intuit, 2008 // <http://about.intuit.com/futureofsmallbusiness/>
6. Luckman S., Nicola J., Thomas R. Crafting economies: Contemporary cultural economies of the handmade. Bloomsbury Academic, (2017): 248.
7. Mignosa A., Kotipalli P. A Cultural Economic Analysis of Craft. (2019). Cham: Palgrave Macmillan, (2019): 318.
8. National Confederation of Crafts and Small and Medium-Sized Enterprises of Italy // <http://www.cna.it/eng/craftsector.htm>
9. Paolo Crosetto. Competition and cooperation. Italian SMEs go international. Prospects for the extension of the Italian industrial district model to Central and Eastern European Countries. Research Centre on Emerging and Transition Countries – University of Turin, 2004.
10. Yair, K., Press, M., Tomes, A. Crafting competitive advantage: Crafts knowledge as a strategic resource. Design Studies. (2001): 377-394.
11. Zentralverband des Deutschen Handwerks // <http://www.zdh.de/facts-and-figures.html>
12. Водянова И.Н. Новая ремесленная экономика как вид малого предпринимательства // Проблемы современной экономики. 2010. № 2. – С. 206-209.
13. Индивидуальная предпринимательская деятельность. Справочное пособие / Сост.: М.Н. Федорова; Отв. ред. П.В. Савченко. – М.: Экономика, 1992.
14. Цой Н.В. Особенности организации надомного труда в Узбекистане. Экономика и финансы. № 6. (2015): 63-69.
15. Харитонович Д.Э. Ремесло. Цехи и миф // Город в средневековой цивилизации Западной Европы. Т. 2. – М.: Наука, 1999.